

**TASAVVUF TA'LIMOTI XORIJ OLIMLARI IZLANISHLARIDA**

*“Alfraganus university”  
Ijtimoiy fanlar kafedrası  
dotsenti Sh.Tursunkulova*

**Annotatsiya:** Maqolada, tasavvuf ta'lilotining xorij olimlari tomonidan o'rganilganligi, ularning ta'lilot xususidagi fikr-mulohazalari tahlil qilingan. Tasavvuf ta'lilotining murakkabligi, ko'pma'noligi aytilgan.

**Tayanch so'zlar.** Tasavvuf, sufizm, falsafa, tasavvuf allomalar.

Tarixiy izlanishlarda asosan tasavvuf ta'lilotining paydo bo'lish davrlari, tasavvuf allomalari asarlarining miqdori, taraqqiyot bosqichlaridan iborat yillar, tizimlilik, asrlar bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar, mutasavvuflarning asarlari, hayoti va faoliyati tadqiq etiladi. Falsafa va falsafiy fanlar tizimida tasavvuf ta'lilotining birmuncha murakkab va chuqurroq mohiyati ya'ni axloqiy, estetik, diniy (ilohiy) va sufiy mazmuni, falsafiy xarakteri (dualizmi, plyuralizmi, gumanizmi) va boshqa ko'pma'noli jihatlari o'rganilmoqda. Adabiyotshunos, tilshunos olimlar tasavvuf ta'lilotining badiiy-estetik ifodasiga, obrazli shakl va mazmuniga, sirli, mistik tomonlarini ochib berishga urinmoqda. Bu haqda faylasuf olim J. Xolmo'minovning ham quyidagi fikri o'rinnlidir: “O'zbek olimlarining tadqiqotlarida tasavvuf ta'lilotiga oid umumiy masalalar (vujudga kelish tarixi, ta'rifi, silsilalari), tariqat odobi (muridlik va murshidlik, xonaqoh, hirqa kiyish odobi, zikr qoidalari, samo’), sayru suluk (maqomat va holot), shariat va tariqat, Komil inson axloqi va futuvvat, irfon va inson, tasavvuf va badiiy adabiyot kabi mavzular tahlili alohida o'rinni egallaydi”<sup>1</sup>.

Bugungi kunda tasavvufiy qarash va an'analarning saqlanib qolgani (Turkiya) ko'pchilikni ajablantiradi, ayniqsa tasavvuf san'ati, sufiylar raqsi deb nomlanuvchi sufiy guruhlarning sirli ijro uslubining mavjudligi alohida ilmiy izlanishlar uchun asos bo'ladi. Shuningdek, tasavvufiy hayot tarzi, uning odamlar hayotidagi izlari, tasavvufiy g'oya va qarashlar san'atda ham namoyon bo'lmoqda. Shu bois aytish mumkinki tasavvuf san'atda ham o'rganiladi. Bu borada keyingi boblarimizda ma'lumotlar berilgan.

Tasavvufiy tafakkur taraqqiyoti, uning dinamikasi, ilohiy va sirli jihatlari, badiiy shakli va mazmuni olimlarni tobora o'ziga jalb qilib borishining sabablari nimada? Nima uchun olimlar, tadqiqotchilar tasavvuf ta'lilotiga ko'proq e'tibor qaratmoqda? Birinchidan, haqiqiy tarixni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi, ikkinchidan, Markaziy Osiyolik mutasavvuf allomalar yaratgan asarlar bilan yaqinroq, chuqurroq

<sup>1</sup> Xolmo'minov J. Jomiy va Vahdat ul-vujud ta'lomi. – T.: O'zbekiston milliy enseklopediyasi, 2008. – 8 b.

tanishishga bo‘lgan istakning kuchliligi, uchinchidan, tasavvuf ma’naviy merosi keljak avlod uchun milliy-tarixiy qadriyat, g’urur-iftixor, o’zlikni anglash vositasi hisoblanadi. Ularning etnomadaniy tajribalari, ijtimoiy-falsafiy, diniy, axloqiy-estetik qarashlari aks etgan moddiy va ma’naviy yodgorliklari tarixiyligi, hayotiyligi, o‘z davriga monandligi bilan ahamiyatlidir.

Jahon va mamlakatimiz ilm-fanida tasavvuf allomalarining ilmiy-ma’rifiy merosini tarixiy, falsafiy, diniy, adabiy, badiiy, ilmiy jihatdan o‘rganish, tadqiqotlar olib borish va tasniflash an’anasi shakllangan. Tasavvuf ta’limoti fanlararo kesimda, din va shariat, ilm va ma’rifat, falsafa, estetika va axloq kabi ko‘pma’noli metodologiyasi bilan ajralib turadi.

Tasavvuf ta’limoti xronologik jihatdan quyidagicha tasniflanadi:

1. “Zohidlik davri” - tasavvufning ibridoiy davri yoki ilk davri;
2. “Oriflik davri” - (IX asr);

3. “Tasavvuf tariqatlari davri” (XI-XII asrlar). Bu davrda tasavvuf tariqatlari Misr, Basra, Bag‘dod, Nishopur, Buxoro, Termiz, Balx shaharlarida keng tarqalgan.

4. “Tasavvuf ilmi va ta’limotining rivojlanish davri” (XIII asr oxiri va XIV asr boshlari). Bu davrda tasavvuf ta’limotida taraqqiyot sodir bo‘ladi.

Tasavvuf allomalari (shayxlar, sufiy shoirlar, tasavvuf nazariyotchilar) Muhyiddin ibn al-Arabi, Yahyo Suhravardiy, Najmiddin Kubro, Farididdin Attor, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumi, Bahouddin Naqshband va boshqalar tasavvuf ilmining nazariy va amaliy jihatlarini rivojlantirish va suluk tamoyillarini taraqqiy etishiga o‘z hissalarini qo‘sghanlar. Tasavvufiy tafakkur rivojida Muhyiddin Ibn Arabiyning “Futuhoyil Makkiya”, “Fusulil hikam”, “At Tadbiratul ilohiyya”, “At Tanazzulatul mavsiliya” asarlari metodologik ahamiyatga ega. Mansur Hallojning “Kitobut tavosin”, Abdulkarim Jiliyning “Al insonul komil”, Faxriddin Iroqiyning “Lamoat”, Mavlono Jomiyning “Lavoih”, Jaloliddin Rumiyning “Ma’naviy Masnaviy”, “Ichindagi ichindadur” asarlari tasavvuf falsafasining eng muhim manbalari hisoblanadi. Bu asarlarning ko‘pchiligi jahon va o‘zbek olimlari tomonidan tarjima qilingan, o‘quvchi asarlardan bahramand bo‘lishi mumkin.

XX asr jahondagi ilmiy tadqiqot institutlari va tadqiqot markazlarining tasavvuf ta’limoti faol o‘rganilgan fundamental manbalar zaxirasini tashkil etadi. G‘arbning sharqshunos olimlari islom sivilizatsiyasi, islom ta’limoti va falsafasi, sufizm va sufizm adabiyoti, tasavvuf tarixi tahliliga oid samarali ilmiy izlanishlar olib borishdi. Tasavvuf va uning mohiyati to‘g‘risida ingliz tilida yozilgan adabiyotlarga A.M. Shimmel, A. Arberrining “Sufizm”, J.S. Trimingemning “Sufiy ordenlar”, zamona viy ilmiy izlanishlardan U. Chittik, Aleksandr Knish, Karl Ernstlarning asarlari, ilmiy maqola va risolalari kiradi.

XX asrning 50-yillarida islom tasavvufining mashhur tadqiqotchisi A.M.Schimmel Anqara universitetining ilohiyot fakultetida talabalarga Rudolf Ottoning numious<sup>2</sup> (xudo) tushunchasini ikki nazariya “Mysterium tremendum va Mysterium fascinans” (lotinchada sirli, dahshatli, maftunkor ma’nolarini anglatadi)ni tushuntirib berayotgan vaqtida talabalardan biri shunday deydi: “Lekin, professor, biz musulmonlar buni asrlar davomida bilamiz. Alloh taoloning ikki jihatni bor: “jalol” – buyuklik, kuch va g‘azab, “jamol” – go‘zallik, mehr va rahm-shafqat”<sup>3</sup> deydi. Ushbu voqeadan so‘ng A. Schimmel fenomenologiyaning islomga tatbiq etilishi imkoniyatlarini alohida o‘rganish kerak degan fikrga keladi<sup>4</sup>. Mysterium tremendum: sirli, hayratlanarli va qo‘rqinchli narsalarni his qilish, insonni kichik, kamtar, itoatkor va mavjudot kabi his qilishga olib keladi. Mysterium fascinans: maftunkor, orzu qilingan, yaxshi, g‘amxo‘rlik va tasalli beruvchi narsaning tuyg‘usi, bu insonni go‘zallikka chorlaydi, insonni mukammallikka va shu bilan o‘ziga xos ruhiy quvonch (baxt) uyg‘otadi<sup>5</sup>.

A. Schimmel tadqiqotlarida go‘zallik simvolini “ikkilik” tushunchasi bilan bo‘g‘lab tushuntiradi, yani dunyoning ikkiga ajralgani (real dunyo va narigi dunyo, yaxshilik va yomonlik, erkak va ayol, tug‘ilish va o‘lim, suv va olov, kunduz va tun, faollik va passivlik) hayotning qutbliliginini bildiradi deb aytadi. Ijod bilan bog‘liq paydo bo‘ladigan “ikkilik”ning go‘zal timsoli Jaloliddin Rumiy tomonidan ixtiro qilingan, buni “ip o‘rami” (ikki ildiz: johillik va donishmandlik) tushunchasi misolida izohlab beradi<sup>6</sup>.

Islomshunos olim A. Arberri tasavvuf va uning kelib chiqish manzili hamda “mutasavvuf allomalari jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo‘sghan va qo‘shimcha ravishda shifobaxsh va mo‘jizaviy qobiliyatlarini bilan mashhur bo‘lgan tasavvuf ta’limotining jozibadorligining sirlari bilan qiziqadi”<sup>7</sup>. Qarama-qarshiliklar, transsenssiya va immanentlik birligini anglash uchun ruhiy amaliyot zarur. So‘fiylik amaliyotiga ko‘ra inson o‘z ichidagi qarama-qarshiliklarning birligiga erishishi mumkin. Arberri fikricha, Payg‘ambar alayhissalom o‘z qiyofasida inson tabiatining barcha fazilatlarini namoyon etadi. U turmush quradi va farzandli bo‘ladi. Vahiyni qabul qilib, uni yetkazadi. Payg‘ambar voqelikning tashqi va ichki tomonlarini birlashtirgan universal matritsadir. Aynan Payg‘ambar Yaratuvchi ijodining go‘zalligini namoyish etadigan go‘zallik va buyuklik timsolidir, deb ta’kidlaydi<sup>8</sup>.

<sup>2</sup> <https://www2.kenyon.edu/Depts/Religion/Fac/Adler/Reln101/Otto.htm>

<sup>3</sup> Samarina, Tat’iana. (2017). From the History of Islamic Studies: A.-M. Schimmel and Phenomenological Approach to Religion. St. Tikhon’s University Review. 71. 89-103. 10.15382/sturI201771.89-103.

<sup>4</sup> <https://www.perlego.com/book/2674234/islam-an-introduction-pdf> (A. Schimmel)

<sup>5</sup> <https://www2.kenyon.edu/Depts/Religion/Fac/Adler/Reln101/Otto.htm> (R. Otto)

<sup>6</sup> Schimmel A. The Mystery of Numbers. New York. Oxford, Oxford University Press, 1993. – 50 p.

<sup>7</sup> Арберри А. Дж. Суфизм. Мистики ислама. Пер. с англ. – М.: Сфера, 2002. - 5 с.

<sup>8</sup> Арберри А. Дж. Суфизм. Мистики ислама. Пер. с англ. – М.: Сфера, 2002. - 202 с.

J.S. Trimingemga ko‘ra, sufiylik yo‘li buddizm, iudaizm, hinduizm, xristianlik dinlarida ham mavjud. Musulmonlarda tasavvuf yo‘li axloqiy poklanish (“ma’naviy jihod”- mujohad) va insoniy takomillashuv g‘oyasiga asoslangan. Mazkur g‘oya axloqiy fazilatlar nazariyasi (maqomat) va qisqa holatda spontan, qo‘qqisdan paydo bo‘ladigan, miltillab turuvchi yorug‘likning birdan chaqnashi (xol) kabi mulohazalarida aks etadi. Shuningdek, IX-XIII asrdagi rasmiy islomning so‘fiylik g‘oyalariga qarshi qattiq va shavqatsiz kurashlari to‘g‘risida yozgan<sup>9</sup>.

Islom ta’limoti asosida shakllangan tasavvuf ta’limotida go‘zallik, go‘zallikni sevish to‘g‘risida ko‘p bora ta’kidlansada islom falsafasi kamdan-kam hollarda go‘zallik bilan bog‘lanadi. Shu sababli ayrim olimlar (Kazuyo Murato) islomdagi unutilgan go‘zallik tarixini sufiy asarlar orqali aniqlash kerakligini ta’kidlaydi. Shu xususida, Kazuyo Murato “Sufiylikdagi go‘zallik: Ruzbixon Bahliy ta’limoti” nomli asarida dunyoda va insonning go‘zallikka intilishi musulmonlar hayotining maqsadi ekanligini aytadi. Inson Xudoga taqlid qilib, komil bo‘lishi va Xudoning go‘zal suratida yaratilgan tug‘ma insoniy tabiatini tiklashi kerak. Qur‘on, hadislar va tasavvuf allomalarining asarlaridagi go‘zallikka oid asosiy atamalarни chuqur tahlil qilish lozim. Ilohiy, kosmik va insoniy go‘zallikni, payg‘ambarlar, xususan Odam Ato, Ibrohim, Yusuf, Muso va Muhammad alayhissalomning go‘zalligini o‘rganishni ta’kidlaydi. Sufiylarning go‘zallik nazariyasi, asosan, fors va arab tillaridagi chalkash uslubi va eksantrik terminologiyasi tufayli kam o‘rganilgan<sup>10</sup>.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ta’limotini o‘rganishda olimlar tomonidan kam e’tibor qaratiladigan masala go‘zallik tushunchasiga e’tibor qaratish juda dolzarbdir. Go‘zallik tushunchasi tasavvuf ta’limoti va islom falsafasida ko‘p ishlatiladigan, yirik termin bo‘lsada g‘arb va sharq olimlari nisbatan bu tushunchani konseptual jihatdan tadqiq etishmagan.

<sup>9</sup> Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М.: Рипол классик, 1989. - 232 с.

<sup>10</sup> Казўё Мурато. Красота в суфизме: Учение Разбихана Бакли. SUNY Press; Репринтное издание, 2017. - 223 с.